Аннотация. Ушбу мақолада жонсиз асалари Apis Melliferadан синтез қилиб олинган хитозанни вермикулит минерали билан модификациялаш ва олинган сорбентни физик-кимёвий хоссаларини Мак-Бен қурилмаси ёрдамида мезо- ва микроғоваклигини ҳамда рентген дифракцион таҳлил натижалари асосида кристаллик даражасини ўрганилди.

Калит сўзлар: *оқава сув, хитин, хитозан, вермикулит, органовермикулит, сорбент, Мак-Бен қурилмаси, рентген нурлари дифракцион таҳлили, сорбция изотермаси.*

Аннотация. В данной статье изучена модификация хитозана, синтезированного из подмор пчелы Apis Mellifera, минералом вермикулитом и физико-химические свойства полученного сорбента с помощью прибора Мак-Бен, его мезо- и микропористость, а также степень кристалличности по результатам рентгеноструктурный анализ.

Ключевые слова: *сточные воды, хитин, хитозан, вермикулит, органовермикулит, сорбент, прибор Мак-Бена, рентгенофазовый анализ, изотерма сорбции.*

Abstract: In this article, modification of chitosan synthesized from inanimate honey bee Apis Mellifera with vermiculite mineral and physico-chemical properties of the obtained sorbent using Mc-Ben device, meso- and microporosity and crystallinity level were studied based on the results of X-ray diffraction analysis.

Key words: *wastewater, chitin, chitosan, vermiculite, organovermiculite, sorbent, Mac-Ben device, X-ray diffraction analysis, sorption isotherm.*

Кириш. Сўнгги йилларда бутун дунё миқёсида оқава сувлардан анъанавий усуллар ёрдамида органик моддалар ҳамда оғир металлар рухсат этилган меъёр қийматларигача ажратиб олинмаслиги сабабли, сувни тайёрлаш технологик жараёнининг охирги босқичида адсорбцион тозалаш усули қўлланилади. Адсорбция усули билан турли ифлосликларни минимал миқдорларгача йўқотиш мумкин. Ҳозирги кунда бундай мақсадлар учун

табиий минерал сорбентлар – таркибида регуляр структурали материалларни сақловчи силикатлар (диатомит, опока, вермикулит, гидрослюда ва бошқалар) кенг қўлланилиб келинмоқда. Табиий силикатларнинг ғовакли структурасини назорат қилиш ва сирт табиатини ўзгартириш учун улар физик-кимёвий ёки термик фаоллаштирилади.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Аҳоли сонининг тобора ортиб бораётганлиги сабабли, саноат тармоқларининг талабларига жавоб берадиган маҳсулотларни етказиб бериш атроф-муҳитни тозалаш, глобал муаммолардан биридир [1].

Қатламли силикат гил минераллари ва уларнинг адсорбцион хусусиятларини ўзгартириш орқали атроф-муҳитга зарарли таъсир этувчи, ифлослантирувчи моддаларни сорбция қилиш жараёнларини амалга ошириш натижасида сорбентлар олиш имкониятига эга бўлади. Ривожланаётган мамлакатларда бундай талаб кўпинча атроф-муҳитни муҳофаза қилиш учун талаб қилинади, одатда саноат томонидан тартибга солинмайди. [2].

Табиийки, гил минералларини сирт фаол моддалари билан ўзгартириш мумкин, тўртламчи аммоний бирикмаларини гил таркибига киритиш орқали гидрофоб катион хусусиятларини ошириш имконини беради. Кейинчалик бу гил минераллари органогиллар деб аталади ва атроф-муҳитни қайта тиклаш имконини ярата олади [3].

Бундан сувни маҳаллий тозалаш учун мўлжалланган табиий модификацияланган сорбентларнинг янги шаклларини яратиш анча устувор ва долзарб йўналишлардан бири ҳисобланади. Минерал кислоталар ёрдамида қатламли силикатлар модификацияланганда уларнинг сорбцион сиғими ортади [4]. Қатламли силикатларнинг сиртини модификациялаш бўйича тўлиқ маълумотлар Г.А. Ихтиярова ва бошқалар томонидан тақдим этилган мақолада келтириб ўтилган [5].

Маълумки, табиий полисахарид (хитин, хитозан) табиий силикатлар сиртининг модификатори сифатида қўлланилади. Вермикулитни модификациялашда полисахаридларнинг қўлланилиши юқори адсорбцион қобилиятга эга бўлган янги сорбентларни олишга имкон беради [6, 7].

Тадқиқот объекти сифатида вермикулит минерали -Қорақалпоғистон автоном Республикаси ҳудудида жойлашган Тебунбулоқ конидан маҳаллий хомашё сифатида ишлатилди. Иккинчи объект эса жонсиз асаларидан олинадиган хитозан асосан –хитинни модификациялаш билан унинг дезацетилланган (ДА) ҳосиласидир, у юқори молекуляр полимер глюкозамин

бўлиб, суюлтирилган органик ва ноорганик кислоталар аралашмасида эрувчан ҳисобланади. Аммо эримайдиган хитиндан фарқли ўлароқ хитозан нордон эритмаларда эрувчан, саноатнинг турли соҳаларида, қишлоқ хўжалигида ва тиббиётда қўллаш мумкин. Вермикулитни хитозан билан модификациялаш, саноат оқава сувларини турли хил пигмент бўёқларидан ва оғир металл ионларини сорбция қилувчи органовермикулит олинди ва уни тўқимачилик саноати оқава сувларини тозалаш жараёнига тадбиқ этилди.

Вермикулит асосидаги композитни хитозан билан модификациялаш: кислота билан модификацияланган 50 г вермикулитга 75 мл 2%-ли хитозан таъсир қилинди. Суспензия 1 соат давомида аралаштирилди, кейин концентрланган аммиак эритмасидан pH = 10 гача қўшилди. Ҳосил бўлган чўкма фильтрланди, фильтрат дистилланган сув билан нейтрал муҳитгача ювилди, қуритилди, асосий элементлар анализ қилинди ва унинг муҳим физик-кимёвий хоссалари аниқланди.

Тадқиқот натижалари ва уларнинг муҳокамаси. Хитозаннинг сорбцион хусусиятларини ўрганиш асосида фундаментал тадқиқот ишларини олиб бориш муҳим аҳамиятга эга. Хитозан ва унинг ҳосилалари саноатнинг бир қатор соҳаларида фойдаланиш бўйича қизиқиш уйғотмоқда. Ушбу тадқиқотимизда олинган сорбентлар 1-7 кун давомида 20-25°C ҳароратда сақланди. Қаттиқ фазани ажратиб олингандан сўнг дистилланган сув билан ювилди, ювилган сув Cl^- ионлари мавжудлигига текширилди. Сўнг қуритилган намуналар эксикаторда сақланди. Намуналарда бензол ва сув буғлари адсорбцияси тадқиқи Мак-Бен қурилмасида ҳамда эксикатор усули асосида амалга оширилди. Эритмаларда адсорбцион фаолликни аниқлаш учун бўёқ эритмалари (метилен кўки (МК), индиго ва конго қизили (КК)) иштирокида спектрал таҳлиллар ўтказилди. Бўёқ эритмаларининг концентрацияси 0,1 дан 1 ммоль/л гачани ташкил этди [8].

Тадқиқот ишида жонсиз асалари “Apis Mellefera” дан [9] усулда олинган хитозанни вермикулит билан модификацияланилганидан фойдаланилган. Адсорбция изотермаси аниқлашда ҳажмий усулда фойдаланилган. Ушбу усулнинг қулайлиги шундаки, бунда термодинамик қонуниятлар асосида адсорбцияга оид назарий билимларни янада кенгайтиришга ёрдам беради. Бу бензол ва сув буғи молекулаларининг хитозан асосидаги органовермикулит билан ўзаро физик-кимёвий кучлар орқали таъсирлашиши билан тавсифланади (1-жадвал, 1-расм).

1-Жадвалда эса органовермикулитнинг бензол ва сув буғи сорбция изотермаси натижаларидан кўриниб турибдики, моноқават сиғими, солиштирма юзаси, тўйиниш ҳажми, мезоғовак ва ғовак радиусларининг қийматлари ҳисоблаб топилди. Вермикулитга нисбаттан хитозан билан модификацияланган органовермикулитнинг моноқават сиғими ва солиштирма юза қаватининг юқори эканлиги маълум бўлди. Бу эса сорбентларнинг адсорбция хусусиятларини янада ошириш учун хизмат қилади.


Келтирилган 1-расмдан кўриниб турибдики, адсорбция иссиқлигини давомийлигини хитозан таркибидаги амино ва гидроксид гуруҳлари билан бензол ва сув буғлари Ван-дер-Ваальс кучлари орқали ўзаро боғланишидан далолат беради. Жараёнларда бир хил боғлар билан борганлиги учун ҳам адсорбция иссиқлиги давомий бўлади. Бензол ва сув буғи молекулалари органо-

вермикулитнинг мембранасига дастлаб юзага сорбцияланганлиги сабабли сорбцияланиш жуда кучли боради. Охирги бензол ва сув буғи молекуласи адсорбцияланишида адсорбция иссиқлиги бензолнинг 293-298 К ҳароратдаги иссиқлик конденсация чизиғига тенглашади.


1-жадвал

Органовермикулитнинг бензол ва сув буғи сорбциясининг изотермаси


№	a_m(моноқават сиғими) моль/кг	S солиштирма юза/ ($м^2$/г)	Wo Микрофовак	Vs Туйиниш ҳажми	W me, Мезоғовак	Ғовак радиуси Å, (нм)
Бензол буғида						
ВК	0,146	35,14	0,0207402	0.0198545	0.00	11,3
ВК+ХЗ	0,786	188,26	0,1865572	0,2818636	0,10	29,9
Сув буғида						
ВК	0,148	9,62	0,0744513	0,02448	-0.05	50,9
ВК+ХЗ	1,383	89,84	0,0705948	0,111834	0,04	24,9




А)



Б)




В)




Г)

1-Расм. Вермикулит (А) ва хитозан билан модификацияланган вермикулитни (Б) бензол ва сув буғи (В,Г) сорбцияси изотермалари


Органосорбентларнинг кристалл тузилишини аниқлашнинг асосий усули рентген нурлари дифракцион таҳлилидир. Рентген нурларининг дифракция чизиқлари дастлабки ХЗ, ВК ва синтез қилиб олинган ХЗ-ВК учун $d_{0,01}$ текислигидан вермикулит қатламларининг текисликлараро масофаси мос равишда Хитозанда 9,8; 19,6; 22,5; 24,5 Å да, вермикулит минералида 15,8; 18,2; 21; 24; 30 Å да, хитозан билан модификацияланган вермикулитда эса 9,6; 26,2; 31; 34,9 Å гача кўтарилди (2,3-4 расмлар) [10].



2-расм. Хитозаннинг рентген нурлари дифракцион таҳлили натижалари



3-расм. Вермикулитнинг рентген нурлари дифракцион таҳлили натижалари



4-расм. Хитозан + Вермикулитнинг рентген нурлари дифракцион таҳлили натижалари

Хулосалар. Тадқиқотларимиз натижаларига кўра, вермикулитни хитозан асосида модификациялаш натижасида олинган сорбентнинг физик-кимёвий замонавий усуллар ёрдамида Мак–Бен қурилмаси ёрдамида солиштирма юза сиғими, микро ва мезоғоваклиги ҳамда рентген дифракцион таҳлил усули ёрдамида кристаллик даражаси ўрганилди. Ўрганилган сорбентимиз саноат оқава сувларини тозалаш учун импорт ўрнини босувчи сорбент сифатида ишлатиш имконини беради.

Адабиётлар рўйхати:

1. H. Haroon, A. Waseem, & Q. Mahmood, (2013) “Treatment and reuse of wastewater from beverage industry,” Journal of Chemical Society of Pakistan, V. 35, pp. 5–11.
2. S. Y. Lee & S. J. Kim, (2002) “Expansion of smectite by hexadecyltrimethyl ammonium,” Clays and Clay Minerals, V. 50, no. 4, pp. 435–445.
3. J. L. Bonczek, W. G. Harris, & P. Nkedi-Kizza, (2002) “Monolayer to bilayer transitional arrangements of hexadecyltrimethylammonium cations on Na-montmorillonite,” Clays and Clay Minerals, V. 50, no.1, pp.11-17.
4. Shapkin N.P., Khal’chenko I.G. and other. //Inorganic materials. 2017.V.53. №10. P.1091.
5. Ихтиярова Г.А., Умаров Б.Н, Исомитдинова Д.С. Туробджанов С.М. Очистка сточных вод текстильного предприятия композиций на основе вермикулита и модифицированного хитозана.//Журнал композиционные материалы. -№4. -2021., С.116-118.
6. Khalchenko I.G., Shapkin N.P., Shkuratov A.L. // Water practice and technology. 2017.V. 12. № 1. P. 117.
7. Хальченко И.Г., и др. Химическая модификация вермикулита и исследование его физико-химических свойств. http://butlerov.com/ *Butlerov Communications.* **2015**. Vol.41. No.1. P.74-82.
8. Ikhtiyarova G.A. and other. Очистка текстильных сточных вод вермикулитом модифицированного с хитозаном.// International Journal of innovative research.-V.9. Issue 9.,-2021. pp.9780-9786.
9. Ikhtiyarova G.A. and other. Extraction of chitosan from died honey bee Apis Mellifera // Chemical technology, control and management. International scientific and technical journal. Vol. 2020. Iss.2, Article 3. –P. 15-20.
10. G. A. Ikhtiyarova, A. and other. “Characterization of natural- and organo-bentonite by XRD, SEM, FT-IR and thermal analysis techniques and its

adsorption behaviour in aqueous solutions,” Clay Minerals, 2012. V. 47, pp. 31–44.

QUDUQ TANASIDA NEFT EMULSIYASI HOSIL BO‘LISHINING OLDINI OLISH VA PARCHALASH USULLARI

Hamroyev O.O., Sattorov M.O.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Annotatsiya: Konlarda xomashyo neftni tovar neftga qo‘yilgan talablar darajasigacha tayyorlashning asosiy usullaridan biri – bu neftni suvsizlantirish bo‘lib, uni tashkil qilishning eng qulay texnologiyasini tanlash muhim masala bo‘lib qolmoqda. Suv-neftli emulsiyani parchalashning murakkabliklarini oldini olishda uni quduq tanasida hosil bo‘lishi va eskirishiga qarshi kurashish lozim. Maqolada deemulgirlash orqali suv-neft emulsiyalarini paydo bo‘lishining oldini olish va parchalash usullari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: neft, suvlanganlik, quduq, debit, suv-neft emulsiyasi, deemulgator

Annotatsiya: Одним из основных способов подготовки сырой нефти на месторождениях до уровня требований, предъявляемых к товарной нефти, является обезвоживание нефти, и выбор наиболее удобной технологии ее организации остается важным вопросом. Во избежание осложнений разложения водно-нефтяной эмульсии необходимо бороться с ее образованием и износом в стволе скважины. В статье описаны способы предотвращения образования и разрушения водонефтяных эмульсий путем деэмульгирования.

Ключевые слова: нефть, обводненность, скважина, дебит, водонефтяная эмульсия, деэмульгатор

Annotation: One of the main ways to prepare crude oil in the fields to meet the requirements for commercial oil is oil dewatering, and choosing the most convenient technology for its organization remains an important issue. In order to avoid the complications of decomposition of the water-oil emulsion, it is necessary to combat its formation and wear in the borehole. The article describes ways to prevent the formation and destruction of water-oil emulsions by demulsification.

Keywords: oil, waterlogging, borehole, flow rate, water-oil emulsion, demulsifier

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yoqilg‘i-energetika tarmog‘i faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar neftning har bir tomchisini yo‘qotmay, eneregiya va resurs tejamkor texnologiyalarni qo‘llashni taqozo etmoqda. Jumladan, suv-neft emulsiyalari hosil bo‘lishiga qarshi

kurashish orqali kelib chiqishi mumkin bo‘lgan murakkabliklarning oldini olish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoda. Ayniqsa, bu muammo neft qazib chiqarish ko‘rsatkichlari pasayotgan bugungi kunlarda alohida ahamiyat kasb etmoqda [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Quduq mahsulotining qatlam suvlari ishtirokida emulgirlanishining yuqori darajasi favvora va gazlift usulida ishlatilayotgan quduqlarda sodir bo‘lishi haqida birinchi keng qamrovli ishlarni AQSH olimlari olib borishgan. Quduq ustida yoki chuqurlik shtutser qurilmalarida bosimning oshishi bu salbiy jarayonning pasayishiga ta’sir etgan. Quduqlarni chuqurlik nasoslari yordamida ishlatishda esa suv-neftli emulsiyalarning hosil bo‘lishi nuqtasi suvlangan quduq mahsulotining turbulentlik bilan yuqori tezlikdagi harakatini ta’minlovchi yer osti nasos qurilmasi mahalliy tor oraliqlari hisoblanadi.

Suv-neftli emulsiyalari shakllanishi nuqtalarini bilgan holda ayni joyning o‘zida qarshi kurash olib borish orqali samarali natijadorlikka erishish mumkin. Bunda quduqni ishlatish usulidan kelib chiqib, maqbul yechimni ishlab chiqish zarur bo‘ladi [2-5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Bir necha xorij va mahalliy olimlarimizning ilmiy izlanishlari natijasida quduq tanasida emeulsiya hosil bo‘lishiga qarshi deemulgatorlarni qo‘llash amaliyoti keng targ‘ib qilina boshlandi. Deemulgatorning asosiy qismini shtutserdan oldin, kamroq qismini esa quduq tubiga kiritildi. Emulgirlanish darajasi chuqurlik nasoslari, gaz yakori qurilmalarida klapanli oraliqlarini oshirish, nasosni tushirish chuquligini, plunjer yurish uzunligini, tebranishlar soni, chiquvchi quvurlar diametri hamda maksimal to‘g‘riligini boshqarish bilan pasaydi.

Hozirgi kunda quduq tanasida suv-neftli emulsiyalar hosil bo‘lishining oldini olish asosiy usullari quyidagilar:

– quduq mahsulotini fazalar bo‘yicha alohida ko‘tarish: neft va suv ikkita nasos qurilmasi yoki nasos pastidagi fazalar ajratuvchini qo‘llash bilan;

– quduq mahsulotini qizdirish;

– quduq tanasidagi suvni quvurlar orti qismidan nasos qabuliga uzatish;

– quduqlarda mahsulotning suvlanish darajasini pasaytirish uchun o‘z vaqtida oqimni chegaralash tadbirlarini o‘tkazish;

– shtok yurish yo‘li va tebranishlar sonini kamaytirish;

– sirt-faol modda-deemulgatorlarli suvli tizimlar yoki sirt-faol moddali uglevodorod tizimlar bilan quduqni so‘ndirish [6-8].

Quduq tanasida neft emulsiyasini parchalash juda muhim hisoblanib, bu neftni tayyorlash va qayta ishlash jarayonini yaxshilaydi. Bu jarayonni amalga oshirishning bir nechta usullari mavjud:

1. Kimyoviy usullar:

– Emulsiya buzuvchi moddalar: Bu moddalar neft va suv molekulalari o'rtasidagi yopishqoqlikni kamaytiradi, natijada emulsiya parchalanib, neft va suv ajralib chiqadi.

– Kislotalar: Ba'zi hollarda, kislotalar emulsiya buzuvchi moddalar sifatida ishlatilishi mumkin. Ular neftdagi suv molekulalarini ajratishga yordam beradi.

2. Fizikaviy usullar:

– Elektr maydoni: Elektr maydoni neft va suv molekulalarini ajratishga yordam beradi.

– Issiqlik: Issiqlik emulsiyani parchalaydi, chunki u neftning qovushqoqligi va suvning sirt tarangligini kamaytiradi.

– Bosim: Yuqori bosim emulsiyani parchalaydi, chunki u neft va suv molekulalarini bir-biridan ajratadi.

– Sentrifugalash: Bu usulda emulsiya neft va suvning zichliklari farqi hisobiga parchalanadi.

3. Mexanik usullar:

– Aralashtirish: Aralashtirish emulsiyani parchaladi, chunki u neft va suv molekulalarini bir-biriga aralashtiradi.

– Filtrlash: Filtrlash emulsiya tarkibidagi suv va neftni parchalaydi, chunki u neft va suv molekulalarini ajratadi.

4. Kombinatsion usullar:

– Kimyoviy va fizikaviy usullar: Bu usullar ko'pincha birgalikda ishlatiladi, chunki ular emulsiyani parchalashda yanada samaraliroq bo'ladi.

Qaysi usul eng yaxshi ekanligi quyidagilarga bog'liq:

– Emulsiya turi: Ba'zi emulsiyalar boshqalarga qaraganda parchalash qiyinroq.


– Neftning xususiyatlari: Neftning qovushqoqligi va zichligi emulsiyani parchalash qiyinligini belgilaydi.

– Quduq sharoitlari: Quduqning chuqurligi, harorati va bosimi emulsiyani parchalash qiyinligini belgilaydi.

Suv-neftli emulsiya hosil bo‘lishi oldini olishning bir muncha samarali usuli quduqqa deemulgatorlarni kiritish hisoblanadi. Suvli fazaga deemulgatorlarni

kiritish suv-neftli emulsiya hosil bo‘lishini pasaytiradi va hattoki oldini oladi. Misol uchun, hosil bo‘lgan emulsiya fazalararo qavatini parchalash uchun sarflanadigan deemulgator uni suvli fazaga birlamchi kiritishdagiga qaraganda 3 marta ko‘p bo‘ladi [9-11].

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Quduqda ishqalanishning gidravlik kuchlarini pasaytirish uchun turli reagentlarni quduqqa me’yorlab kiritish mumkin. Quduqqa erituvchilar va qator polimerlarni kiritishning quduq debitiga ta’siri o‘rganildi (1-rasm).



1-rasm. Quduq debitining neft suvlanganlik darajasiga bog‘liq holda qo‘shimcha turli qo‘shimchalarni kiritishda o‘zgarishi:
1 – uglevodorodli erituvchi (3 %);
2 – suv eruvchi polimer (0,2 %);
3 – neftda eruvchi polimer (0,2 %).

Quduq tanasiga sirt-faol modda-deemulgatorlarni yetkazish quyidagi asosiy usullar bilan amalga oshiriladi:

– qatlamning quduq tubi sohasiga birlamchi haydash va qazib olinadigan quduq mahsuloti bilan birgalikda quduq tanasiga chiqarib olish yo‘li bilan;

– quvurlararo oraliqqa bir martalik haydash yo‘li bilan;

– quduq usti me’yorlagichlari bilan quvurlararo oraliqqa doimiy haydash yo‘li bilan;

– nasos qabuliga quduq chuqurlik me’yorlagichlari orqali doimiy haydash yo‘li bilan.

Oxirgi texnologik usul bir qator chuqurlik nasosi va gazlift usulida ishlatilayotgan quduqlarda quduq mahsulotini ko‘tarishni yengillashtirish va yuqori parafinli qovushqoq neftlarni kon ichida tashishda muvaffaqiyatli sinovdan o‘tgan.

Sirt-faol moddalarning suvli eritmalarini suvlangan neft qazib oluvchi quduqda markazdan qochma elektr nasos qabuliga uzatish turg‘un suv-neftli emulsiyalar hosil bo‘lishining oldini olish bilan birga cho‘ktirma nasoslar ishining energetik xususiyatlarini yaxshilashga xizmat qiladi[12-15].

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Quduq tanasida hosil bo‘lishi mumkin bo‘lgan suv-neftli emulsiyalarni paydo bo‘lishi va mustahkamlanib borishiga qarshi deemulgatorlarni kiritib borish bilan neftni tayyorlash qurilmalarida tovar neft olish xarajatlarini kamaytirishga, bu bilan tovar neftning tannarxini kamaytirishga hamda arzon neft mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi “ PF-60-son Farmoni.

2. H.K. Abdel-Aal, Mohamed Aggour, M. A. Fahim. Petroleum and gas field processing. New York. Basel. 2003.

3. Hevard Devold. Oil and gas production handbook an introduction to oil and gas production, transport, refining and petrochemical industry. - Oslo: 2013.

4. N.N.Maxmudov, T.Yuldashev, B.Sh.Akramov, M.Tursunov. Konlarda neft va gazni tayyorlash texnologiyasi. Darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2015.-304 b.

5. N.X.Ermatov, D.G‘.Azizova, N.M.Avlayarova, B.Y.Nomozov, A.T.Mo‘minov, A.I.Abdirazakov. Konda neft, gaz, suvni yig‘ish, tayyorlash va tashish. Darslik. –T. 2019. 250 b.

6. M.O. Sattorov. Neft va gazni yig‘ish, tayyorlash va uzatish. Darslik. – Buxoro. “Durdona”, 2021. 380 b.

7. M.O. Sattorov, A.A. Yamaletdinova, Q.Q. Sharipov. Neft va gaz ishi atamalarining izohli lug‘ati. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro. “Durdona”, 2020. 168 b.

8. А.Л.Савченков. Химическая технология промысловой подготовки нефти. Учебное пособие. Тюмень. 2011. -180 с.

9. А.Р. Хафизов, Н.В. Пестрецов, В.В.Чеботарев и др. Сбор, подготовка и хранение нефти. Технология и оборудование. Учебное пособие. - Уфа: “Фэн”, 2002. -576 с.

10. Регулярные процессы и оборудование в технологиях сбора, подготовки и переработки нефтяных и природных газов: учеб. пособие / Е.П. Запорожец [и др.]. - Краснодар: Издательский Дом - Юг, 2012. - 620 с.

11. Синайский Э.Г. Сепарация многофазных многокомпонентных систем / Э.Г. Синайский, Е.Я. Лапига, Ю.В. Зайцев. - М.: ООО «Недра-Бизнесцентр», 2002. - 621 с.

12. Методическое пособие по программе подготовки студентов технологических дисциплин работа в среде «HYSYS» / В.А. Будник. - Салават: 2010. - 80 с.

13. Савватеев Н.Ю. Сокращение потерь углеводородов при промысловой подготовке нефти к магистральному транспорту: автореф. дис. канд. техн. наук. - Тюмень, 2002. - 25 с.

14. Тронов В.П. Промысловая подготовка нефти. Монография. - Казань: "Фэн", 2000. - 416 с.

15. Иванов С.С. Увеличение выхода нефти и снижение содержания легких жидких углеводородов в нефтяном газе при проектировании установок подготовки нефти [Текст] / С.С. Иванов, М.Ю. Тарасов // Нефтяное хозяйство. - 2011. -№8. - с.138-140.

AUTOMATED CHECKING OF PROGRAMMING TASKS

Nafasov Mirzomurod Mukhamadovich
Akhtamova Laziza Azam qizi
Bukhara engineering technological institute, (Uzbekistan)

Abstract

The article presents a comparative analysis of the automation of programming assignment checking, its efficiency, accuracy and comparison with manual checking. It examines various assessment methods, their impact on student learning and implementation issues. By analyzing existing automated assessment systems, the study discusses the optimization of the process of checking practical programming assignments based on technology-based assessment strategies.

Keywords: automated grading, programming education, code evaluation, artificial intelligence, machine learning, static analysis, dynamic analysis, plagiarism detection, assessment efficiency.

Аннотация

В статье представлен сравнительный анализ автоматизации проверки заданий по программированию, ее эффективности, точности и сравнения с ручной проверкой. В ней рассматриваются различные методики оценки, их влияние на обучение студентов и проблемы внедрения. Анализируя существующие автоматизированные системы оценки, в исследовании обсуждается оптимизация процесса проверки практических заданий по программированию на основе стратегий оценки, основанных на технологиях.

Ключевые слова: автоматизированная проверка, обучение программированию, проверка кода, искусственный интеллект, машинное обучение, статический анализ, динамический анализ, обнаружение плагиата, эффективность оценки.

Annotatsiya

Maqolada dasturlashga oid topshiriqlarini tekshirishni avtomatlashtirishni, uning samaradorligi, aniqligi va qo'lda tekshirishga nisbatan qiyosiy tahlili keltirilgan. Unda turli baholash metodologiyalari, ularning o‘quvchilar bilimiga ta’siri va amalga oshirishdagi qiyinchiliklar o‘rganiladi. Mavjud avtomatlashtirilgan baholash tizimlarini tahlil qilish orqali tadqiqot texnologiyaga asoslangan baholash strategiyalari asosida dasturlash bo'yicha amaliy topshiriqlarni tekshirish jarayonini optimallashtirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: avtomatlashtirilgan tekshirish, dasturlash, kodni tekshirish, sun'iy intellekt, mashinali o'rganish, statik tahlil, dinamik tahlil, plagiatni aniqlash, baholash samaradorligi.

Introduction. Programming assignments serve as a fundamental component of computer science education, fostering students' problem-solving abilities, logical reasoning, and coding proficiency. These assignments not only reinforce theoretical concepts but also cultivate hands-on experience in algorithm design and software development. However, the manual evaluation of programming tasks presents several challenges, including time consumption, subjective grading, and the possibility of human errors. As the number of students in computer science courses continues to grow, the demand for efficient and scalable assessment methods becomes increasingly critical.

Automated assessment systems provide a promising solution by enabling instant feedback, ensuring consistency in grading, and reducing instructors' workload. These systems leverage various techniques, including static code analysis, dynamic testing, and machine learning-based evaluation, to assess students' submissions based on correctness, efficiency, coding style, and adherence to best practices. Additionally, automated feedback mechanisms can enhance the learning experience by allowing students to iteratively improve their code based on real-time suggestions.

Methods. A systematic review of existing automated grading tools and frameworks was conducted to analyze the state-of-the-art approaches in programming assignment evaluation. This review encompassed a comprehensive examination of various assessment methodologies, including static analysis, dynamic analysis, and machine learning-based evaluation. Each method was assessed based on its ability to measure code correctness, computational efficiency, and adherence to coding standards.

To further investigate the practical implementation and effectiveness of automated assessment systems, a prototype was developed and deployed in an educational setting. The system was designed to evaluate student submissions using a multi-criteria assessment framework, incorporating the following key evaluation components:

- Syntax and Semantic Analysis: Ensures that the submitted code adheres to correct syntactic rules and logical structures using Abstract Syntax Tree (AST) parsing and symbolic execution techniques.
- Test Case Execution: Automates the validation of program correctness by executing predefined unit tests and edge-case scenarios, measuring pass/fail rates and code coverage metrics.
- Performance Benchmarking: Analyzes algorithmic efficiency by computing time complexity (Big-O notation) and runtime performance under varying input sizes.
- Style Conformance Checks: Uses static code analysis tools (e.g., Pylint, Checkstyle, ESLint) to enforce adherence to programming style guidelines and best practices.
- Automated Plagiarism Detection: Leverages token-based, AST-based, and machine learning-based code similarity detection algorithms to identify potential cases of code reuse or academic dishonesty.

To enhance the accuracy and reliability of the assessment, advanced techniques such as control flow analysis, data flow analysis, and graph-based dependency tracking were integrated into the system.

A comparative evaluation of different automated assessment approaches was conducted, as summarized in Table 1.


Approach	Correctness Evaluation	Efficiency Analysis	Style Compliance	Plagiarism Detection	Feedback Speed	Implementation Complexity
Static Analysis	✗ Limited	✗ No	✓ Strong	✓ Moderate	✓ Instant	✓ Low
Dynamic Analysis	✓ Strong	✓ Strong	✗ Limited	✗ Weak	✗ Slower	✗ High
Machine Learning-based	✓ Adaptive	✓ Adaptive	✓ Strong	✓ Advanced	✓ Instant	✗ Very High

- Static analysis tools provide instant feedback but lack execution-based correctness verification.
- Dynamic analysis ensures correctness and efficiency evaluation but requires extensive test cases and execution environments.
- Machine learning-based methods offer adaptive evaluation but pose challenges in training data availability and computational cost.

The prototype system was tested on a dataset of 500 student submissions across three programming courses (Introductory Programming, Data Structures, and Algorithms). The evaluation yielded the following results:

- 96% of submissions were correctly assessed with an average feedback time of 3.2 seconds per submission.
- Plagiarism detection identified 18% of submissions with high similarity scores (above 80%), requiring further instructor review.
- Students who received automated feedback showed a 27% improvement in debugging efficiency compared to those relying solely on manual instructor feedback.

A schematic representation of the system architecture is shown in Figure 1, detailing the flow from code submission to final evaluation, incorporating preprocessing, analysis, and feedback generation.



Furthermore, to assess the pedagogical impact of automated grading, empirical data was collected through structured surveys and interviews with students. The survey aimed to evaluate the system's effectiveness in providing timely feedback, its role in improving students' programming skills, and their perception of fairness and usability. The collected data were analyzed using quantitative and qualitative methods, allowing for an in-depth understanding of the advantages and limitations of automated evaluation in programming education.

This methodological approach ensures a rigorous investigation into the capabilities of automated grading systems, providing valuable insights into their potential to enhance learning outcomes in computer science education.

Results. The proposed automated assessment system successfully evaluated programming assignments with high accuracy and efficiency, demonstrating its potential for scalable and reliable grading in computer science education. The evaluation was conducted on a dataset of 500 student submissions, covering a range of programming problems with varying levels of complexity.

1. Accuracy and Efficiency of Automated Grading

The system's grading accuracy was measured by comparing its evaluations with those of experienced human instructors. The results showed a grading agreement rate of 96.5%, computed using Cohen's Kappa coefficient (κ) to measure inter-rater reliability:

$$k = \frac{P_0 - P_e}{1 - P_e}$$

where:

P_0 is the observed agreement between the automated system and human graders,

P_e is the expected agreement by chance.

With $P_0 = 0.965$ and $P_e = 0.50$ k= 0.93, indicating near-perfect agreement between the automated system and human grading.

In terms of efficiency, the system achieved an average assessment time of 3.2 seconds per submission, compared to an estimated 5–10 minutes per submission for manual grading. This resulted in a 95% reduction in grading time, as illustrated by the formula:

$$\text{Time Rediction } (\%) = \frac{T_h - T_a}{P_h} \times 100$$

where:

$T_h = 600$ sec (human grading time per submission),

$T_a = 3.2$ sec (automated grading time per submission).

$$\text{Time Rediction } (\%) = \frac{600 - 3.2}{600} \times 100 = 99.47\ \%$$

indicating a significant efficiency improvement.

2. Impact on Student Engagement and Learning Outcomes

A survey conducted among 200 students revealed the following:

- 87% of students reported an improvement in coding efficiency due to instant feedback.
- 78% of students stated that automated feedback helped them identify errors faster compared to traditional grading methods.
- 67% of students showed increased motivation to resubmit and improve their code after receiving automated feedback.

The correlation between the number of feedback iterations *(F)* and students' score improvement *(S)* was modeled using a linear regression equation:

$$S = \beta_0 + \beta_1 F + \varepsilon$$

where:

$\beta_0 = 40$ (base score on the first attempt),

$\beta_1 = 3.2$ (average score increment per feedback iteration),

ε represents the residual error.

Applying this model, a student who receives feedback four times can expect a score increase of:

$$S = 40 + (3.2 \times 4) = 52.8$$

indicating a significant improvement in performance due to iterative learning.

3. Comparative Performance Analysis

A comparative evaluation of the automated grading system against manual grading and semi-automated (AI-assisted) grading is presented in Table 2**.**

The results indicate that while fully automated grading slightly sacrifices accuracy, it drastically improves efficiency and engagement, making it a viable solution for large-scale educational environments.

Grading Method	Accuracy (%)	Avg. Feedback Time (sec)	Student Satisfaction (%)	Instructor Workload Reduction (%)
Manual	100	600	65	0
Semi-Automated (AI-assisted)	98	120	80	65
Fully Automated	96.5	3.2	87	95

Discussion. This study underscores the significant advantages of automated assessment systems in programming education, particularly in terms of time efficiency, grading consistency, and fairness. The findings demonstrate that automated grading not only reduces instructors' workload but also enhances the learning experience by providing instant, objective, and iterative feedback to students.

1. Advantages of Automated Assessment Systems. The efficiency gains observed in this study align with existing literature, where automated grading systems have been shown to reduce grading time by over 90% compared to manual evaluation. Additionally, the high inter-rater reliability score (κ=0.93) suggests that automated assessments provide consistent and unbiased grading, mitigating the subjective variations often present in human grading. These factors contribute to a more equitable evaluation process, ensuring that students are assessed based on objective performance metrics rather than subjective interpretations.

Another key advantage is the pedagogical impact of instant feedback. The linear regression analysis of student performance improvements showed that multiple feedback iterations led to a statistically significant increase in assignment scores ($p<0.01$). This suggests that automated assessment fosters an iterative learning approach, where students can refine their code and improve problem-solving skills without waiting for delayed feedback from instructors.

2. Challenges and Limitations. Despite these advantages, several challenges and limitations of automated grading systems were identified:

Handling Complex Assignments: While automated assessment effectively evaluates syntax, correctness, and efficiency, it struggles with open-ended programming tasks that require creativity and algorithmic design. Such assignments often lack a well-defined set of test cases, making automated evaluation less comprehensive.

Security and Plagiarism Detection: The study revealed that 18% of submissions had high similarity scores, raising concerns about academic integrity. While plagiarism detection algorithms (e.g., AST-based and token-based comparisons) can flag similar submissions, more sophisticated techniques, such as deep learning-based code similarity detection, need to be integrated to enhance reliability.

Code Readability and Maintainability: The current system primarily focuses on correctness and performance but does not fully account for code readability, documentation quality, and maintainability. While static analysis tools (e.g., Pylint, Checkstyle) provide basic style enforcement, they do not capture more nuanced aspects of good coding practices.

3. Future Directions. To address these limitations, future research should focus on integrating AI-driven techniques to improve the accuracy and adaptability of automated grading systems. Possible advancements include:

Deep Learning for Code Quality Assessment: Neural networks trained on large datasets can predict code readability, maintainability, and structure, enabling a more holistic evaluation.

Reinforcement Learning-Based Feedback Systems: AI-driven feedback mechanisms can adaptively suggest code improvements based on a student's skill level, fostering personalized learning.

Blockchain for Secure Code Submission: Implementing decentralized ledger technologies can enhance authorship verification and prevent academic dishonesty in programming assignments.

Hybrid Assessment Models: Combining automated evaluation with human oversight for complex assignments can ensure a more comprehensive and accurate grading process.

By addressing these challenges, automated assessment systems can evolve into intelligent grading assistants, capable of enhancing learning outcomes while maintaining academic integrity and evaluation fairness.

Conclusion. The automation of programming assignment assessment has proven to be a transformative approach in computer science education, offering numerous pedagogical and practical benefits. By providing timely, objective, and consistent feedback, automated grading systems enhance students' learning experiences, enabling them to iteratively refine their problem-solving skills and coding proficiency. Additionally, the significant reduction in grading time alleviates the workload of instructors, allowing them to focus on more complex educational tasks, such as personalized mentoring and curriculum development.

Despite these advantages, challenges such as evaluating complex assignments, ensuring academic integrity, and assessing code readability remain areas of active research. However, continuous advancements in artificial intelligence, machine learning, and software engineering hold great potential for overcoming these limitations. The integration of deep learning-based code quality assessment, adaptive feedback mechanisms, and blockchain-powered security measures can further refine automated grading systems, making them more robust, intelligent, and scalable.

Ultimately, the future of programming education lies in the synergy between automation and human expertise, where AI-driven assessment systems complement traditional teaching methods to create a more efficient, fair, and engaging learning environment. By embracing these technological innovations, educational

institutions can enhance the quality of programming instruction and better prepare students for the evolving demands of the software industry.

References

1. Brown, A., Taylor, R., & Davis, P. (2021). Automated assessment tools in programming education: A review. Journal of Educational Technology, 15(3), 45-59.
2. Johnson, T. (2022). Optimizing code evaluation in automated systems. Programming and Software Engineering Review, 8(2), 123-134.
3. Lee, H., & Kim, S. (2019). Limitations of automated testing in creative programming tasks. International Journal of Computer Science Education, 10(4), 78-92.
4. Smith, J., & Johnson, L. (2020). The impact of automated testing on learning outcomes. Educational Technology Research, 12(1), 33-47.
5. Keuning, H., Jeuring, J., & Heeren, B. (2018). A systematic literature review of automated feedback generation for programming exercises. ACM Transactions on Computing Education (TOCE), 19(1), 1-43. https://doi.org/10.1145/3231734
6. Piech, C., Sahami, M., Huang, J., & Guibas, L. (2015). Autograder: A machine learning approach to automatic student grading. Journal of Educational Data Mining, 7(3), 1-18.
7. Wilcox, E., & Settle, A. (2018). Investigating the effectiveness of automated grading tools for novice programmers. IEEE Transactions on Education, 61(4), 265-272. https://doi.org/10.1109/TE.2018.2809490

Development of science

Ilmiy jurnal

Dekabr 2024 № 6 VOLUME 1,(1)

Development of science ilmiy elektron jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o’tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (word va pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar.

Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega